



O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANINING RIVOJLANISHI

Zoirova Dodar Jumaqul qizi

Siyob Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumi

Annotatsiya: maqolada O'zbekistonda psixologiya fanining shakllanishi va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinadi. Ta'lim tizimida psixologiyaning o'rni, ilmiy tadqiqot markazlari, kadrlar tayyorlash va zamonaviy amaliyotdagi qo'llanilishi o'rganiladi. Shuningdek, psixologiyaning jamiyat va inson rivojlanishidagi ahamiyati ham ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, psixologiya, ilmiy rivojlanish, tadqiqotlar, ta'lim, tarixiy bosqichlar, zamonaviy amaliyot.

Psixologiya fanining O'zbekistonda rivojlanishi tarixiga e'tibor qaratilsa, uning asosan so'nggi o'n yilliklarda shakllanganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga, O'zbekiston hududida psixologik qarashlar tarixan diniy va falsafiy olimlar ta'sirida rivojlangan. Misol uchun, eramizning II–III asrlarida paydo bo'lgan manixizm (asoschisi Mani) va mazdakizm (asoschisi Mazdak) ijtimoiy adolat, shaxsning o'ziga xosligi va jamiyatdagi munosabatlar kabi masalalarni o'z diniy qarash tizimlari orqali ilgari surgan. Biroq tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, bu davrda mukammal va tizimli ijtimoiy psixologik konsepsiyalar mavjud bo'lmagan. O'zbekistonda psixologik tadqiqotlar asosan oila va oilaviy munosabatlar bilan bog'liq bo'lgan. Masalan, birinchi ijtimoiy psixologik tadqiqot 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshida I. Yoqubov tomonidan o'tkazilgan. Tadqiqotda er-xotin o'rtasidagi ijtimoiy rollar va oilaviy munosabatlarni mustahkamlovchi psixologik omillar o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, oila a'zolarining rollarga oid uyg'un munosabatlari oiladagi xamjihatlikni saqlash uchun muhim hisoblanadi. Oiladagi janjallar esa, asosan zamonaviy o'zbek ayolining ijtimoiy mehnat bilan bandligi hamda oilaviy an'analar va qadriyatlarning saqlanib qolganligidan kelib chiqadi. Shu bilan birga, zamonaviy psixologiyada oila va ijtimoiy muhitning shaxs psixologiyasiga ta'siri alohida e'tibor qaratiladi. Masalan, ijtimoiy psixologik tadqiqotlar ko'rsatadiki, bolaning shaxsiy rivojlanishi oilaviy qo'llab-quvvatlash, ota-onaning psixologik yetukligi va oila ichidagi muloqot sifati bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari, so'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar orasida stress, depressiya va ijtimoiy moslashuv muammolarini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu tadqiqotlar oilaviy, ijtimoiy va madaniy omillarni birlashtirib, shaxsning psixologik holatini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Shu tarzda, O'zbekistonda psixologiya fanining rivojlanishi tarixan diniy-falsafiy qarashlar



bilan boshlansa-da, zamonaviy davrda u ilmiy asoslangan, amaliy yo'nalishlarga ega bo'lgan ijtimoiy psixologiya va oilaviy psixologiya tadqiqotlariga aylanmoqda. So'nggi yillarda katta guruhlarining psixologiyasiga bag'ishlangan bir qator tadqiqotlar olib borildi. Masalan, V.M. Karimova (1987) o'zbek ayollarining ijtimoiy tasavvurlarining o'zgarish jarayonlarini o'rganishga e'tibor qaratgan, E. Usmonov (1993) esa o'zbek ayollarining o'z-o'ziga zarar yetkazish xulq-atvorining ijtimoiy-psixologik sabablarini tadqiq qilgan. Shu bilan birga, E. No'monova o'zbek oilalaridagi reproduktiv qarashlarning o'ziga xos jihatlarini, M. Zokirova esa erkaklar va ayollardagi rollarga bo'lgan tasavvurlarni tahlil qilgan. M. Toshpo'latov esa o'zbek yoshlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllanayotgan ijtimoiy xulq-atvorini o'rganishga qaratilgan ishlar olib borgan. Bunday tadqiqotlar natijasida yaqin kelajakda yangi etnopsixologik yondashuvlar paydo bo'lishi kutilmoqda va ular respublikamizdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shadi.

Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqazo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va etakchidir. Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib borish tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va tamoyillarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda psixologiya sohasida ko'plab muhim tadqiqot mavzulari mavjud. Ayniqsa, mustaqillik davrida shaxs va turli ijtimoiy guruhlarining psixologiyasida yuz berayotgan o'zgarishlar, turli yosh, demografik, etnik va professional guruhlariga mansub insonlarning ijtimoiy tasavvurlari va ularning ijtimoiy xulq-atvorini boshqarish asoslarini ilmiy jihatdan ishlab chiqish zarurati katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ishlab chiqarish psixologiyasi, boshqaruv



psixologiyasi, guruhlar psixologiyasi hamda ommaviy psixik jarayonlarning ta'siri masalalari ham o'zbek psixologlarining e'tiborini kutmoqda. Bu tadqiqotlarda ilg'or ilmiy yutuqlardan foydalanib, hududning milliy xususiyatlari hisobga olinishi lozim.

Hozirgi kunda psixologiya tobora rivojlanib, yangi sohalar paydo bo'lmoqda. Oxirgi yillarda quyidagi yo'nalishlar faol shakllanib bormoqda: antropologik psixologiya, akmeologiya, tahdid va terrorizm psixologiyasi, xristianlik psixologiyasi, muloqot psixologiyasi, davriy psixologiya, biokonstitutsion psixologiya, "buyukshunoslik" psixologiyasi, o'sish va tirik hayot psixologiyasi, kvant psixologiyasi, tergov psixologiyasi, badiiy qabul etish psixologiyasi, psixologik adabiyotshunoslik, eshitish va ko'rish qobiliyatlari psixologiyasi, nogironlar psixologiyasi, kitob va o'qish psixologiyasi, tush va tush ko'rish psixologiyasi, sevgi psixologiyasi, inqirozli vaziyatlar psixologiyasi, ekzoterik va taqdir psixologiyasi, mutaassiblik va qobiliyatlar psixologiyasi, xususiylik va o'quv faoliyati psixologiyasi, ayollar va erkaklar psixologiyasi, genotsid va ommaviy qotilliklar psixologiyasi, xizmat va savdo-sotiq psixologiyasi, OAV va elektoral xulq-atvor psixologiyasi, din psixologiyasi, qo'rquv va o'lim psixologiyasi, muqobil psixologiya va boshqa yo'nalishlar. Shu tarzda psixologiya sohasidagi ilmiy faoliyat tobora kengayib, turli ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarga javob beradigan yangi yo'nalishlar yuzaga kelmoqda.

Xulosa

O'zbekistonda psixologiya fani rivojlanishi uzoq tarixiy jarayon bilan bog'liq bo'lib, uning ildizlari xalqning an'anaviy bilimi, ma'naviy qadriyatlari va madaniy tajribasiga taalluqlidir. XX asr boshlarida bu soha ilmiy asosga ega bo'la boshladi, universitetlar va ilmiy markazlarda psixologiya darslari tashkil qilindi, tadqiqotlar olib borila boshlandi. Mustaqillik davrida psixologiya o'zining mustaqil fan sifatidagi mavqeini yanada mustahkamladi, milliy va zamonaviy yondashuvlarni uyg'unlashtirishga e'tibor qaratildi. Bugungi kunda O'zbekistonda psixologiya nafaqat ilmiy tadqiqotlar, balki ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy sohalarda ham keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, milliy an'ana va madaniyatni inobatga olgan holda psixologik xizmatlarni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash va ilmiy ishlarni chuqurlashtirishning istiqbolli yo'llari mavjud. Umuman olganda, psixologiya fanining O'zbekistonda rivojlanishi jamiyatning ma'naviy va ijtimoiy salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi muhim yo'nalish sifatida ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR

1. Umarova, G., & Toshpo'latov, A. (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноазиатский журнал



междисциплинарных исследований и исследований в области управления,
1(10), 49–55. Извлечено

от. <https://inacademy.uz/index.php/cajmrms/article/view/33393>

https://t.me/innovatsion_akademic

2. Umarova, G. (2024). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI
O'QUVCHILARNING O'QISHGA BO'LGAN KLASSTERLI YONDASHUVI.
B CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH (T. 2,

Выпуск 6, сс. 116–122). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.11542450>

https://t.me/innovatsion_akademic <https://zenodo.org/records/11466931>

3. Toshpo'latov, A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA
PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский
журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178.